

THE IMPORTANCE OF BREATHING AND ARTICULATION EXERCISES IN ELIMINATING SPEECH DEFECTS

Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna

Maxsus pedagogika kafedrası dotsenti, PhD

Abdullayeva Oyjamol Adhamjon qizi

Maxsus pedagogika (Logopediya)yo'nalishi magistranti

Abstract

This article presents the ideas about the importance of breathing and articulation exercises in eliminating speech defects, the inextricable link between speech breathing and the formation of oral speech, its representation of the system of psychomotor reactions, the subordination of the character of speech breathing to intraspeech programming, and the semantic, lexical-grammatical and intonational enrichment of the statement.

Keywords. Respiratory muscles, articulation, respiratory organs, speech breathing, speech exercises, oral speech, pathology, intonation, correction.

Introduction

NUTQ KAMCHILIKLARNI BARTARAF ETISHDA NAFAS VA ARTIKULYATSION MASHQLARNING AHAMIYATI

Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna

Maxsus pedagogika kafedrası dotsenti, PhD

Maxsus pedagogika (Logopediya)yo'nalishi magistranti

Abdullayeva Oyjamol Adhamjon qizi

Annotatsiya

Ushbu maqolada nutq kamchiliklarni bartaraf etishda nafas va artikulyatsion mashqlarning ahamiyati, nutqiy nafas og'zaki nutqning hosil bo'lishi bilan uzviy bogliqligi, psixomotor reaksiyalar tizimini ifodalashi, nutqiy nafasning xarakteri ichi nutqiy programmashtirishga, bayonning semantik, leksik-grammatik va intonatsion boyitishganligiga bo'ysunishi haqidagi fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Nafas mushaklari, artikulyatsiya, nafas organlari, nutqiy nafas, nutq mashqlari, og'zaki nutq, patologiya, intonatsiya, korreksiya.

Nutq-inson xayotini ta'minlovchi funktsiyalardan biridir. Normada fiziologik nafas jarayoni ritmik amalga oshadi. Nafas chuqurligi organizmning kislorodga bo'lgan ehtiyojiga mos keladi. Nafas olish, nafas chiqarishga qaraganda nafasning nisbatan faol bazasi hisoblanadi. Nafas chiqarishda diafragma muskullari bo'shashadi. Ko'krak qafasiniko'taruvchi va pasaytiruvchi qovirg'alararo mushaklar bilan birgalikdadiafragma yuqoriga ko'tariladi va o'pkani qisadi. Diafragmanafasning ta'minlanishida asosiy harakatlantiruvchi kuch bo'lib, nafasda ishtirok etadi.

Nafasdagi kamchiliklar qator tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgandir. G.Gutsman 1924, Z.G.Nelyubova 1938, I.M.Got 1971, N.N.Ostanin va boshqalar nomlari keltirilgan mualliflarning alog'ida tadqiqotlarini ko'rsatilishicha, rinolaliyada nafas tezlashgan va yuzaki bo'ladi. Bu holat quyidagilarga bog'liq. Burun orqali chiqariladigan havo miqdori chiqariladigan umumiy havo miqdorining 77% gacha ko'tarilishiga, nutqiy nafas chiqarish so'zni talaffuz qilish davomida noto'g'ri taqsimlanadi: so'z o'rtasida havo tugaydi. (V.N.Yakovenko - 1966) burun orqali havo chiqib ketishi holatini sun'iy bartaraf etishda (burun qanotlarini siqish) orqali chiqariladigan havo miqdori oshadi, biroq bunda spirometrik ko'rsatkichlar baribir normaga erishmaydi. (T.N.Vorontsova – 1966, A.V.Koval' – 1968, A.K.Arifdjanov - 1974).

Maktabgacha yoshdagi bolalarni yosh darajalari turlicha, shunga ko'ra ular bilan olib boriladigan mashg'ulotlarni turi va darajalari ham turlicha bo'ladi. Misol uchun 3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar bolalarda o'yin turining sodda ko'rinishlari o'ynaladi, 5-7 yoshli duduqlanuvchi bolalar bilan olib boriladigan o'yinlar esa bir muncha murakkabroq tusda bo'ladi. Bunaqa bolalar bilan o'yinlar asosan guruhli tarzda olib boriladi. Ba'zan esa bola yakka o'zi o'ynashni xohlaydi. Bolalar bilan nutqiy nafasni rivojlantirishga oid o'yin turlariga bir qancha mashqlarni kiritishimiz mumkin: didaktik mashqlar, haraktli mashqlar, shivirlab gapirishga qaratilgan mashqlar, dramatizatsiyalashtirilgan mashqlar, qo'shiq aytish bilan olib boriladigan mashqlar, sportga aloqador harakatli mashqlar va boshqalar. Biz logoped sifatida nutqiy nafasni rivojlantirish uchun bu mashq turlarini faqatgina bittasidan foydalanib qolmasdan, barcha turdagi mashqlardan keng foydalanamiz. Bolaga nuqul bitta turdagi mashqni o'ynataversak bola nima qiladi,

zerikadi bergan topshiriqni bajarmaydi. Shuning uchun logoped yaratuvchan bo'lishi kerak, bolalarga har safar turlicha mashq turlarini ko'rsatishi kerak. Quyida eng samarali mashqlarning kompleksini tavsiya etamiz.

Mashqlarning birinchi kompleksi.

Mashqlarning birinchi kompleksi bir hafta davomida bajariladi va turli bo'g'inlarni kuylashdan iborat bo'ladi.

1-2 mashqlar.Og'iz orqali nafas olishni bajarish va nafas chiqarishda bug'inlarni kuylagan holda talaffuz etish.

Mashqlarning ikkinchi kompleksi.

Mashqlarning ikkinchi kompleksi ikki hafta davomida bajariladi.

1-mashq..Og'iz orqali nafas olishni bajarish va nafas chiqarishda ikki bo'g'inli so'zni(bo'g'inlab)kuylagan holda talaffuz etish.

Quyidagi so'zlar qo'llaniladi:dada,bola,olma,dala.

2-mashq..Og'iz orqali nafas olishni bajarish va chiqarishda uch bo'g'inli so'zni(bo'g'inlab)kuylagan holda talaffuz etish.

Quyidagi so'zlar qo'llaniladi:shabada,mashina.

Mashqlarning uchinchi kompleks. Mashqlarning uchinchi

kompleksi bir hafta davomida bajariladi.

1-mashq..Og'iz orqali nafas olishni bajarish va va nafas chiqarishda ikki so'zdan iborat jumlani kuylagan holda talaffuz etish.

Ikki bo'ginli va uch bo'g'inli so'zlardan iborat jumlar qo'llaniladi.

2-mashq..Ogiz orqali nafas olishni bajarish va nafas chiqarishda uch so'zdan iborat jumlani kuylagan holda talaffuz etish.

Ikki bo'g'inli so'zlardan iborat jumlar qo'llaniladi.Masalan:qush inga kirdi.

3-mashq..Og'iz orqali nafas olishni bajarish va nafas chiqarishda to'rt so'zdan iborat jumalarni kuylagan holda talaffuz etish.

Ikki bo'g'inli so'zlardan iborat jumlar qo'llaniladi.Masalan:bizni uyga mehmon keldi.

Mashqlarning to'rtinchi kompleksi

Mashqlarning to'rtinchi kompleksi bir hafta davomida bajariladi.

Bolalarga shunchaki jumlaning logoped bilan birgalikda qaytarish yoki uning ketidan berilgan namuna va sxemani qaytarish emas, balki berilgan predmetni rasmni nomlagan holda gapni mustaqil yakunlash taklif etiladi.

Barcha mashqlar o'xshash qurilgan bo'lib, biroq dastlab faqatgina predmetli rasmlar o'zgaradi, keyinroq jumladagi alohida so'zlar, so'ng jumla to'raligicha o'zgaradi. Mashq: Og'iz orqali nafas olishni bajarish va nafas chiqarishda va bog'lovchi bilan birgalikda to'rt so'zdan iborat jumlaning kuylagan holda talaffuz etish.

Mashqlarning beshinchi kompleksi.

Mashqlarning beshinchi kompleksi ikki hafta davomida bajariladi

1-mashq Sxema asosida ikki she'riy jumlaning kuylagan holda talaffuz etish..

2-mashq Sxema asosida to'rtta she'riy jumlaning kuylagan holda talaffuz etish.

Bolalarga tanish bo'lgan she'r yoki ulardan parchalar qo'llaniladi.

V-bosqich Prozaik matnning talaffuz etish jarayonida nutqiy nafasni rivojlantirish.

Maqsad: Prozaik matnning talaffuz etish jarayonida nutqiy nafasni mashq qilish. Bosqichning taxminiy davomiyligi to'rt hafta

1-mashq Sxema asosida prozaik matndagi ikki jumlaning talaffuz etish.

Sxema asosida prozaik matndagi uch-turt jumlaning talaffuz etish.

Prozaik matndagi talaffuz etish, bunda berilgan predmet yoki predmetni rasmni zudlik bilan nomlangan holda har bir jumlaning yakunlash lozim.

Berilgan rasmni yoki predmetni materialni (mevalar, sabzavotlar va boshqalar) namoyish etish davomida matn mustaqil bayon etish.

Xulosa

Bolada nutqiy nafasning rivojlanishi nutqning rivojlanishi bilan parallel ravishda amalga oshadi. 3 – 6 oyda nafas sistemasining ovoz reaksiyalarini amalga oshirishga tayyorgarligi boshlanadi ya'ni nutqiy ontogeneznining erta bosqichida og'zaki nutqining asosida yotgan fanator nafas mexanizmlari koordinatsiyasining diffuz qayta ishlanishi boshlanadi.

Shunday qilib, nutqiy nafas og'zaki nutqining hosil bo'lishi bilan uzviy bog'liq psixomotor reaksiyalar tizimining ifodalaydi. Nutqiy nafasning xarakateri ichki nutqiy programmashtirishga, demakki, bayonning sematik, leksik, grammatik va intonatsion boyitishganligiga bo'ysungan bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ayupova M.Yu., L. R. Mo'minova, G. V. CHirkina;.. Logopediya: Ped. oliy bilimgoi «Defektologiya» ixtisosligi talabalari uchun . 2010.
2. Настольная книга педагога-дефектолога; 2-е изд Под ред. Елифанцева Т.О. Ростов н/Д: Феникс 2007
3. Дефектология. Специальная педагогика и специальная психология. В. Глухов МПГУ ISBN 978-5-4263-0575-5 2017
4. Дефектология. Словарь-справочник Автор-составитель Степанов Сергей Сергеевич «Автор» 2004
5. Дошкольная олигофренопедагогика Катаева А.А., Стребелева Е.А Учеб. для студ.высш. учеб, заведений. — М.: Гуманит.изд.центр ВЛАДОС, 2005. — 208 с.
6. Логопедия в таблицах, схемах, цифрах /Пятница Т.В. /Феникс/ с 173/ 2018
7. Madinakhan, M., & Odinakhan, R. (2023). STAGES OF UPBRINGING AND DEVELOPMENT OF SPEECH-IMPAIRED CHILDREN IN THE FAMILY. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 16, 33-37.
8. Maxmudova, M., & Xasanova, I. (2023). DIZARTRIYA NUTQ BUZILISHI TOVUSHNING TALAFFUZ TOMONIDAN BUZILISHI SIFATIDA. Interpretation and researches, 1.
9. Madinakhan, M., & Iroda, K. (2023). SPECIFIC FEATURES OF DYSARTHRIA SPEECH DISORDER IN CHILDREN WITH SPEECH DEFICIENCY. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 16, 42-45.
10. Saule, Z., & Sobirxonovna, M. M. (2023). DISRUPTION OF SPEECH, WHICH IS NOT VISIBLE IN RETARDATION OF MENTAL DEVELOPMENT. Academia Science Repository, 4, 46-50.
11. Madinakhan, M. (2023). THE THEORETICAL SIGNIFICANCE OF THE DEVELOPMENT OF THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF THE



- TUTOR OF A SPECIAL EDUCATIONAL INSTITUTION. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(11), 353-356.
12. Shukhratovich, M. K. (2023). WAYS TO OVERCOME SPEECH DEFECTS IN THE EDUCATION OF PARALYZED CHILDREN. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(11), 348-352.
13. Xurshid, M. (2023). Maxsus yordamga muxtoj bolalar va o'smirlarni ijtimoiy reabilitatsiyasida oilaning roli. Confrencea, 12(12), 338-342.
14. Xurshid, M. (2023). Rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalar oilalarida oilaviy munosabatlarning rivojlanishi davrlari. Confrencea, 12(12), 332-337.
15. Xurshid, M. (2023). Maxsus yordamga muxtoj bolalar oilalari bilan olib boriladigan psixoterapevtik ish. Confrencea, 12(12), 326-331.
16. Khurshid, M. (2023). Views Of Eastern Thinkers On The Education Of Children With Special Needs. JournalNX, 9(11), 210-215.